

O‘QUVCHILARDA EHTIYOJNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK MASALALARI

Mustaqimova Manzura Muzaffarovna

Buxoro viloyat Shofirkon tuman

1-umumta'lim maktab psixologi

Jumayeva Diloram Murodullo qizi

Buxoro viloyat Shofirkon tuman

37-umumta'lim maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarda ehtiyojlar shakllanishi, ularning psixologik xususiyatlari, ehtiyojlar turlari va ularni rivojlantirishdagi pedagogik va psixologik masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘quvchi, ehtiyoj, motivatsiya, psixologik rivojlanish, shaxsiy xususiyatlar, tarbiya, ijtimoiy muhit, o‘zini anglash, shaxsiy maqsadlar

KIRISH

Ehtiyoj — bu insonning hayotiy, ruhiy yoki ijtimoiy zaruriyatlarini qondirishga bo‘lgan tabiiy intilishidir. Oddiy qilib aytganda, ehtiyoj — bu insonga nimagadir muhtojlik hissi, ya’ni u biror narsani xohlash yoki unga erishish zarurati.

Ehtiyojlar bir necha turga bo‘linadi:

Biologik ehtiyojlar – ovqatlanish, suv ichish, uyqu, sog‘liqni saqlash kabi hayotiy zaruratlar.

Psixologik ehtiyojlar – o‘zini anglash, muvaffaqiyatga erishish, o‘z qobiliyatini namoyon qilish.

Ijtimoiy ehtiyojlar – do‘stlik, mehr-oqibat, jamiyatda hurmat va qabul qilinish.

Bilim olish va rivojlanish ehtiyoji – yangi narsalarni o‘rganish, ko‘nikmalarini oshirish, kasbga tayyorlanish.

Shunday qilib, ehtiyoj insonning harakatlarini yo‘naltiruvchi va motivatsiyalovchi asosiy omil hisoblanadi. O‘quvchilarni rivojlantirishda ehtiyojlar muhim psixologik omil hisoblanadi. Ehtiyojlar — bu insonning yashash, o‘rganish va ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishga bo‘lgan tabiiy intilishlaridir.

O‘quvchilarda ehtiyojlar bir necha turga bo‘linadi:

Biologik ehtiyojlar — ovqatlanish, uyqu, sog‘lom turmush;

Ijtimoiy ehtiyojlar — do‘stlik, mehr-oqibat, jamiyatdagi hurmat;

Psixologik ehtiyojlar — o‘zini anglash, shaxsiy o‘sish, o‘z qobiliyatlarini namoyon qilish;

Bilim olish ehtiyoji — bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish, muvaffaqiyatga erishish istagi.

Ehtiyojlar shakllanishida oilaviy va maktab muhitining roli katta. Oilada mehr, qo‘llab-quvvatlash va hurmat mavjud bo‘lsa, o‘quvchi ijobiy ehtiyojlarni rivojlantiradi. Maktab esa bilim va ijtimoiy ko‘nikmalarni mustahkamlashga yordam beradi.

O‘quvchilarda ehtiyojlarni rivojlantirish psixologik jarayonlarni talab qiladi. Pedagog va psixolog quyidagi masalalarni hal qilishi zarur:

- O‘quvchining shaxsiy ehtiyojlarini aniqlash;
- Motivatsiya va rag‘batlantirish vositalarini qo‘llash;
- Ijobiy muhit yaratish;
- Ehtiyojlarni salbiy yo‘nalishda shakllanishining oldini olish;
- O‘quvchilarni o‘z qobiliyatlariga mos faoliyatga yo‘naltirish.

Ehtiyojlar bilan ishlashda psixologik testlar, suhbatlar va kuzatuvlar samarali vosita hisoblanadi. Shu orqali o‘quvchining qiziqishlari, qobiliyatlari va ijtimoiy ehtiyojlari aniqlanadi.

Shuningdek, o‘quvchining ehtiyojlarini qondirishda individual yondashuv muhim. Har bir o‘quvchi o‘ziga xos xususiyatga ega, shuning uchun pedagogik va psixologik yondashuv ham moslashtirilishi zarur.

Hozirgi kunda zamonaviy ijtimoiy psixologiya fanida ehtiyojlarning bir necha o‘nlab tasnifi mavjud. Tadqiqotimizning maqsadiga muvofiq ravishda, biz zamonaviy shaxs ehtiyojlarining shakllanishining asosiy yo‘nalishlarini belgilash, ajratishda belgilovchi ahamiyatga ega bo‘lgan ba’zi tasniflarini ilmiy tahlil etamiz. Ma’lumki, ehtiyojlarning mazmuni, ularning sifat va miqdoriy xarakteristikalari faoliyat asosida, determinatsiya qilinadi, shuning uchun ehtiyojlarni tasniflashning asosiy yo‘nalishlaridan biri faoliyatning asosiy turlariga ko‘ra tasniflashdan iborat – moddiy-ishlab chiqarish, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy – mehnatga bo‘lgan ehtiyoj, ijtimoiy-siyosiy faoliyat ehtiyoji, ma’naviy ehtiyojlarning turli shakllari: axloqiy, estetik, badiiy va hokazo kabi ehtiyojlar ajratib ko‘rsatiladi. Biroq bu ehtiyojlarning turli-tumanligi faqat ularni belgilaydigan faoliyat turlari bilan cheklanib qoladi degan ma’noni bermaydi. Bir ehtiyojning o‘zi masalan, axloqiy yoki estetik turli faoliyat – mehnat, ijtimoiy-o‘zgartiruvchi, muloqot sohasidagi turlari bilan qondirilishi mumkin. Shu bilan birga, faoliyatning birgina turi masalan, mehnat faoliyati bir emas, bir necha ehtiyojlarni qondirishi mumkin.

Ijtimoiy munosabatlarning asosiy turlariga ko‘ra biz shaxs ehtiyojlarining ikki guruhini: moddiy va ma’naviy hamda uchinchi–moddiy-ma’naviy guruhini ajratishimiz ham mumkinki, uni moddiy yoki ma’naviy guruhga tom ma’noda ajratib kiritib bo‘lmaydi. Albatta, ehtiyojlarni u yoki bu guruhga kiritish ma’lum darajada shartli hisoblanadi, chunki moddiy ehtiyojlarda ma’naviy mazmuni mavjud, “ma’naviy ehtiyojlar” esa “moddiy ehtiyojlar” bilan bog‘liq. Shu sababdan, moddiy yoki ma’naviy ehtiyojlar haqida so‘z ketganda ular ustunlik jihatdan xuddi shunaqa

(moddiy yoki ma'naviy) ekanligiga aniqlik kiritib olish kerak. Masalan, kiyimga bo'lgan ehtiyoj nafaqat moddiy bo'libgina qolmay, u ma'lum darajada estetik, ma'naviy ehtiyojlarning namoyon bo'lishi ham hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyotining o'sib borishi bilan birga hirsiy "emotsional" ehtiyoj ham yorqin aks etadigan ma'naviy mazmun kasb etmoqda.

Ba'zi ehtiyojlarning bizni qiziqtirayotgan aspektidagi (jihatdagi) o'rnini statusini aniqlash oson ish emas. Ular qatoriga, masalan, tabiat bilan muloqot qilish ham kiradi. Shu paytgacha moddiy ehtiyojlarga bo'lgan yondashuvga ko'ra bundaylar qatoriga, asosan, inson organizmini, uning jismoniy yashashini borlig'ini ta'minlashga bo'lgan ehtiyojlar kiritiladi. Shu asnoda, L.P.Buyevaning nuqtayi nazarini keltirish o'rinli bo'ladi. Olimaning fikricha, moddiy ehtiyojlar tizimini, jumladan, tabiat bilan muloqot ehtiyojini kengroq tushunish zarurligini ta'kidlaydi.

Olimaning fikriga ko'ra, "Insonning moddiy ehtiyojlari tizimi jamiyat moddiy hayotini qayta ishlab chiqarish va rivojlanishi jarayonining turli tomonlarini aks ettiradi. Ushbu tizim insonning mehnat jarayonida amalga oshadigan tabiat va jamiyatga bo'lgan munosabatlarini ishlab chiqarishning yaxlit, yagona usulida qamrab oladi". Boshqa nuqtayi nazar ham mavjud. Bunda diqqat e'tibor tahlil qilinayotgan hodisa, fenomen avvalambor ma'naviy ehtiyoj - estetik, axloqiy va boshqa ehtiyojlarning o'ziga xos sintezidir degan fikrga qaratiladi. Albatta, har bir jamiyat o'ziga xos tabiatga bo'lgan tor pragmatik, faqat iste'mol qilish munosabatini yengib o'tish bilan, zamonaviy jamiyat tabiat bilan birga o'zaro aloqani shakllantiradi va bu aloqalarda inson sub'ektivligining yuqori va nozik tomonlari namoyon bo'lishi" aks ettiriladi. Zamonaviy jamiyatning taraqqiyoti davomida biz o'rganayotgan ehtiyoj turi, bizning fikrimizcha, asosan moddiy ehtiyojligicha qolsa ham, yanada ko'proq ma'naviylik kasb etadi. "Faqat sayr qilish, turizm paytidagi tabiat bilan muloqot, balki mehnat qilayotgan paytda, jamoa shaklida uning estetik o'zgarishi, "jumladan, bog'-tomorqalaridagi (uchastkalaridagi) tabiat bilan muloqot ham umumiy ehtiyojga aylanadi" degan fikrga qo'shilmasdan bo'lmaydi.

Shaxsning ehtiyojlaridan a) "ovqatlanish"; b) "kiyinish"; v) "uy-joyga"; d) "jismoniy"; e) "salomatlik", uni saqlash va tibbiy xizmat; j) tabiat bilan o'zaro faoliyatga (muloqotga) bo'lgan ehtiyojlar tabiiy, asosan bular moddiy ehtiyojlar qatoriga kiradi. Bir qator mualliflar tabiat bilan muloqotga nisbatan ehtiyojni boshqa ba'zi ehtiyojlar bilan chambarchas bog'liq majmua shaklida ekologik ehtiyoj deb ham ataydilar. Asosan ma'naviy ehtiyojlar qatoriga a) ilmiy dunyoqarashga bo'lgan ehtiyoj; b) nazariy-o'rganishga (bilim olishga); v) axloqiy; g) estetik va badiiy; d) ma'naviy muloqotga bo'lgan ehtiyoj; e) hayotning mohiyatini (mazmuni) izlash va amalga oshirishga bo'lgan ehtiyojlar kiradi. Shu o'rinda ehtiyojlar haqidagi bilimlarimiz chuqurlashib borgani sayin ehtiyojlar tizimining o'zi ham yangi elementlar bilan to'lib boradi. Masalan, "estetik ehtiyojlar" bilan bir qatorda san'at

funksiyasi bilan qanoatlantiriladigan badiiy ehtiyojni ham ajratib ko'rsatish asoslanib berilgan edi.

Ehtiyojlarning navbatdagi guruhiga biz "mehnat" va "ijtimoiy-siyosiy faoliyatga" bo'lgan ehtiyojlarni kiritamiz. Ularning tahlili bundan oldin zikr qilingan ehtiyojlar guruhlarini chuqurroq tushunish uchun asosiy rol o'ynaydi. Shu asnoda, ijtimoiy ehtiyojlarning zamonaviy sharoitdagi umumiy tuzilmasida, strukturasi moddiy va ma'naviy jihatlari bir-biriga yaqindan bog'lanib ketadigan ehtiyojlarning ko'lami oshib borayotganligini ta'kidlab o'tish lozim. Boshqacha qilib aytganda, mehnat va ijtimoiy-siyosiy faoliyatga bo'lgan ehtiyojlar moddiy va ma'naviy jihatlarning birligi, yaxlitligi bilan xarakterlanadi. Ya'ni mehnatga bo'lgan ehtiyoj sintetik ehtiyoj bo'lib, unda moddiy va ma'naviy ehtiyojlarning elementlari mavjud. Ijtimoiy-siyosiy faoliyat moddiy-amaliy faoliyatlarning asosiy turlaridan biri bo'lganligi sababli, unda ehtiyoj moddiy ehtiyoj jihatlari mavjud. Biroq, ushbu ehtiyoj tarkibida mehnatga bo'lgan ehtiyoj ham, ma'naviy ehtiyojning o'rganishga (bilim olishga), muloqotga va hokazolarga bo'lgan ehtiyojlar kabi elementlari ham mavjud.

Bizning fikrimizcha, bu yerda moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining jihatlarning dialektikasi aniq namoyon bo'ladi. Zamonaviy shaxs moddiy ehtiyojlarining shakllanish jarayonida moddiy jihat ma'naviylashadi, g'oyaviy mazmun bilan to'ldiriladi. O'z navbatida, ma'naviylik moddiylashadi, ob'ektivlashadi. Ma'naviy jihatning moddiylashuvida, shaxsning "ma'naviy intilishlarining", "g'oyaviy qiziqishlarining" ob'ektivlashuvida, ideallik va voqelikning "bir-biriga qo'llab bo'lmaslikni" yengib o'tishda, avvalambor, amaliyot yetakchi rol o'ynaydi va amaliyotning asosiy turi sifatida ishlab chiqaruvchi mehnat dastlabki o'rinda turadi. Zamonaviy shaxs ehtiyojlarining shakllanish jarayonida mehnat va amaliyotning har qanaqa boshqa asosiy turi – ijtimoiy-siyosiy faoliyati, ushbu jarayonning ham maqsadi va ham moddiy asosi hisoblanadi. Biroq bu kelajak jamiyatida inson faoliyati shaxs ehtiyojlaridan mustaqil, xoli bo'ladi degani emas. Bunda mehnatga bo'lgan ehtiyoj mustasnodir. Zero, mehnatga bo'lgan ehtiyojning ulkan ahamiyati borligi bilan bir qatorda, inson xulq-atvorini belgilovchi determinant boshqa ehtiyojlarning ma'naviy, estetik va boshqalar ahamiyatiga past baho bermaslik kerak.

Mehnatni zamonaviy shaxsning "yetakchi ehtiyoji" deb tushunish ularning tizimida moddiy ehtiyojlarning o'rnini belgilash imkonini beradi. Moddiy ehtiyojlarni qondirish bilan inson dastavval moddiy va ma'naviy boyliklar iste'molchisi sifatida amal qiladi. Mehnatga bo'lgan ehtiyojni qondirish jarayonida esa inson ularning yaratuvchisidir va "o'zida ishlab chiqariladigan va iste'mol qilinadigan narsa va xizmatlar doirasidan tashqariga chiqadigan qobiliyatlar va ehtiyojlarni rivojlantiradi".

Ajratib ko'rsatilgan asosga ko'ra, ehtiyojlarning biz taklif qilgan tasnifi to'la bo'lmasada, shaxsning ko'plab ehtiyojlarini qamrab olishga imkon beribgina qolmay, balki ularni tizimga solish imkonini ham beradi deb o'ylaymiz.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda ehtiyojlarni to'g'ri shakllantirish — ularning shaxsiy rivojlanishi, motivatsiyasi va ijtimoiy moslashuvini ta'minlovchi asosiy psixologik vazifa hisoblanadi. Maktab va oila bu jarayonda birgalikda ishlashi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yusuf Xos Xojib. Qutadg'u bilig.-T. Fan.197, -402b.
2. Abu Rayxon Beruniy. Mineralogiya. Izd, prizv. T. Z. –T.1966 -308b.
3. Abu Rayxon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar . –T. Fan. 1968. -375b.
4. G'oziev E. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi. –T.Universitet 2003.
5. G'oziev E. Yuksak xislarni shakllantirish. Xalq ta'limi 1-son 2005.
6. Буева Л.П. Человек, деятельности и общения.-М. Вопросы философии:-№5 1978. С.138
7. Anikeev N.P. Jamoada ruhiy muhit. -O'qituvchi, 1993-252 b.
8. Козлова О.В. Психология современной семьи. –М.: Просвещение. 1988.с 210